NAVOIYNING FORSIY QIT'ALARIDA SHE'R VA SHOIRLIK KONSEPSIYASI: BADIIY IJOD, ADABIY MEZONLAR VA BADIIY SALOHIYAT TALQINI

Masutova Shaxlo Omonovna,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
nodirbekrahmonov06@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning forsiy qit'alarida ifodalangan she'r va shoirlik haqidagi qarashlari badiiy ijod, adabiy mezonlar va ijodiy salohiyat nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoirlik faqat badiiy faoliyat sifatida emas, balki axloqiy va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq tizim sifatida ham ko'rib chiqiladi. Tahlil uchun Navoiy forsiy qit'alaridan to'rtta namuna tanlab olindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, shoirlik haqidagi tasavvur badiiy haqiqatni anglash, kamtarlik, o'zgalar ijodiga hurmat, o'z ijodiga muhabbat va faxr, shuningdek, shoirlikdan maqsad kabi adabiy mezonlar va ijodiy imkoniyatlarning o'zaro bog'liqligi asosida shakllanadi.*

Kalit so'zlar: *Navoiy, forsiy qit'alar, fors tili va turkiy til, adabiy majlislar, shoirlik konsepsiyasi, badiiy ijod, adabiy mezonlar, ijodiy qudrat, kamtarlik,..*

КОНЦЕПЦИЯ ПОЭЗИИ И ПОЭТИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА В ПЕРСИДСКИХ КЫТ'А АЛИШЕРА НАВОИ: ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ТВОРЧЕСТВО, ЛИТЕРАТУРНЫЕ КРИТЕРИИ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА

Аннотация. *В данной статье анализируются взгляды Алишера Навои на поэзию и поэтическое мастерство, отражённые в его персидских*

кыт'а, с точки зрения художественного творчества, литературных критериев и творческого потенциала. В исследовании поэтичность рассматривается не только как художественная деятельность, но и как система, связанная с нравственными и социальными отношениями. В качестве материала для анализа отобраны четыре образца персидских кыт'а Навои. Результаты показывают, что представление о поэтичности формируется на основе взаимосвязи таких факторов, как постижение художественной истины, скромность, уважение к творчеству других, любовь и гордость за собственное творчество, а также понимание цели поэтической деятельности как литературного критерия и творческой возможности.

Ключевые слова: *Навои, персидские кыт'а, персидский и тюркский языки, литературные собрания, концепция поэтичности, художественное творчество, литературные критерии, творческий потенциал, скромность.*

THE CONCEPT OF POETRY AND POETIC CREATIVITY IN ALISHER NAVOI'S PERSIAN QIT'AS: ARTISTIC CREATION, LITERARY CRITERIA, AND THE INTERPRETATION OF CREATIVE POTENTIAL

Abstract. *This article analyzes Alisher Navoi's views on poetry and poetic creativity as reflected in his Persian qit'as from the perspective of artistic creation, literary criteria, and creative potential. In the study, poetry is considered not only as an artistic activity but also as a system connected with moral and social relations. Four samples of Navoi's Persian qit'as were selected for analysis. The results show that the concept of poetic creativity is formed through the interrelation of such factors as the comprehension of artistic truth, modesty,*

respect for others' творчество, love and pride in one's own work, as well as an understanding of the purpose of poetry as a literary criterion and creative possibility.

Keywords: *Navoi, Persian qit'as, Persian and Turkic languages, literary gatherings, concept of poetry, artistic creation, literary criteria, creative potential, modesty*

Kirish. Sharq mumtoz adabiyotida shoirlik faqat ijodiy faoliyat emas, balki ko'plab axloqiy va ibratli sifatlarni o'zida mujassam etgan muqaddas kasb sifatida qaraladi. Alisher Navoiy ba'zi forsiy qit'alarida shoirlikning mazmuni, shoirning o'z asariga munosabati, boshqa shoirlar ijodini baholash mezonlari va ijodiy imkoniyatlar masalalari haqida fikr yuritadi. Bu qit'alar shoirlikning mas'uliyati faqat ijod bilan cheklanmasdan, berilgan ilohiy imkoniyatdan unumli foydalanish, nuqson va kamchiliklardan xoli bo'lish hamda o'zgalarga ibrat ko'rsatish shoir zimmasidagi muhim vazifa ekanini anglashga imkon beradi. Tadqiqotning maqsadi Navoiy forsiy qit'alarida badiiy ijod, she'r va shoirlik haqidagi qarashlarning badiiy-g'oyaviy mazmunini ochib berishdan iborat.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Navoiy ijodi, jumladan uning forsiy qit'alari o'zbek va xorijiy adabiyotshunoslikda turli darajada o'rganilgan. Tadqiqotlarda ko'proq shoirning umumiy ijodi, g'oyaviy qarashlari va poetik tizimi haqida fikr yuritiladi.

O'zbek olimlaridan I.Haqqulov, G'.Abdurahmonov, Sh.Shomuhammedov, G'.Abdurahmonov, N.Bekova, S. Erkinov, N. Karimov, T. Mirzaev va boshqalar Navoiy ijodini asosan uning umumiy adabiy merosi doirasida tahlil qilganlar. Bu ishlarda shoirning estetik qarashlari ham yoritiladi, lekin forsiy qit'alar alohida yo'nalish sifatida kamroq ko'rib chiqiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda E. G. Browne, E. E. Bertels va A. Schimmel Navoiy ijodini Sharq mumtoz adabiyoti kontekstida o'rganib, uning ikki til va ikki adabiy an'ana o'rtasidagi o'rnini ko'rsatib beradilar. Ularning ishlarida Navoiy ko'proq umumiy madaniy va adabiy jarayonning bir qismi sifatida talqin qilinadi.

Shunga qaramay, Navoiy forsiy qit'alarida shoirlik, adabiy mezonlar va ijodkor mas'uliyati masalasi alohida tizim sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Ayniqsa, shoirning o'z ijodiga bergan bahosi va adabiy kamtarlik haqidagi qarashlari chuqur tahlilga muhtoj

Metodologiya. Tadqiqotda badiiy-tahliliy, germenevtik va struktural-semantik usullardan foydalanildi. Matnlar metaforalar, ma'no qarama-qarshiliklari va semantik qatlamlar asosida tahlil qilindi. "Farzand", "bozor", "qandolat", "zargar", "kamtarlik" va "hasad" kabi obrazlar shoirlik haqidagi qarashlarning asosiy ma'no birliklari sifatida ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar.

1.Shoir mas'uliyati, ijoddagi bag'rikenglik

She'ri man gar z-on ki dar ma'ni ba man farzand shud,
Lek mahbubi manast ash'ori marghubi kason.
Onchunun k-aftod farzandi kason mahbubi man,
Chi buvad ar farzandi man ham gast mahbubi kason?![1;29]

Badiiy tarjima:

She'rim shirin go'yo farzand bo'ldi menga
Boshqalarning she'ri ham qand bo'ldi menga,
Aziz dedim el baytlarin , farzand kabi,
Bo'lsin she'rim ham bu elga dilband kabi

Bu qit'ada Navoiy shoirlik va ijodga bo'lgan munosabatni juda nozik masala sifatida aks ettiradi. Shoir o'z she'rini "farzand" deb ataydi, ya'ni uni o'ziga juda yaqin, ichki hissiyotdan tug'ilgan ijod mahsuli sifatida ko'radi. Lekin shu bilan birga u faqat o'z asarini emas, balki boshqalarning yaxshi she'rlarini ham qadrlashini ochiq aytadi. Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, ijod faqat muallifga tegishli bo'lib qolmaydi, u kengroq adabiy muhitda yashaydi va boshqalarning asari ham inson ko'ngliga yoqishi mumkinligi tabiiy hol sifatida ko'rsatiladi. Shu orqali Navoiy adabiy bahoda xolislik va adolat g'oyasini ilgari suradi. Qit'aning keyingi misralarida fikr yanada kuchayadi: agar boshqalarning "farzandi", ya'ni asari ma'qul bo'lsa, shoirning o'z "farzandi" ham boshqalarga yoqishi tabiiy ekani ta'kidlanadi. Natijada qit'ada shoirlik faqat o'z ijodini ulug'lash emas, balki boshqalarning ijodiga hurmat bilan qarash, adabiy muhitda o'zaro tan olish va xolislik asosida shakllanishi kerakligi g'oyasi ilgari suriladi.

Qit'ada shoirlikka xos uch jihat yaqqol ko'zga tashlanadi: boshqa ijodni tan olish, o'z asariga nisbatan xolis munosabatda bo'lish va adabiy muhitdagi hasad kabi holatlarni tabiiy jarayon sifatida anglash. Natijada shoirlik yakka ijod emas, balki o'zaro tan olish va baholashga asoslangan badiiy munosabat sifatida namoyon bo'ladi.

Bilamizki, Temuriylar davrida hukmdorlar tomonidan ko'plab adabiy majlislar o'tkazilgan. Bunday majlislarda shoirlar ijod to'g'risida bahs-munozaralar uyushtirishgan. Yuqoridagi qit'a bilan bog'liq mazkur she'rda ham o'zgalar ijodini tanqid qiluvchi o'z holidan bexabar shoirlar qoralangan:

Ey, ki nazmi suhanvaroni jahon,
Mekuni nafi, she'ri xud tahsin.
Nestand ahli donishu insof,

Ki buvad inchuninashon oin.
Hunari xeshu aybi kas didi
Nesti ko'r, aksi in ham bin. [1;30]
Badiiy tarjima:
Boshqalarning she'rin ayblab yurguvchi zot,
O'z she'rini yuksaklarga otguvchi zot.
O'z aybini ko'rolmaslik — bilimsizlik,
O'zga she'rin ayblamoqlik — ilmsizlik.
Qalb ko'zing och, avvalo, sen o'zingga boq,
O'zga emas, o'z holingdan olgin saboq.

Dono xalqimiz "Avval o'zingga boq, so'ngra nog'ora qoq" deb bejiz aytmagan. Ushbu qit'ada ham boshqalarning ijodini doimiy ravishda tanqid qilib, o'z asarini esa ortiqcha ulug'laydigan kimsalar tanqid ostiga olinadi. Navoiy bunday yondashuv adabiy mezonlardan uzoqlashish ekanini ko'rsatadi. Chunki inson o'z aybini ko'ra olmasa, u nafaqat o'z ijodida, balki ma'naviy kamolot yo'lida ham to'xtab qoladi. Shuning uchun shoir avvalo o'z asariga tanqidiy nazar bilan qarash, o'z kamchiligini anglash zarurligini uqtiradi. Qit'adagi asosiy g'oya zidlanishlar orqali yanada ta'sirchan ifodalangan bo'lib, o'zini ko'tarish va boshqani past ko'rish o'rtasidagi ziddiyat ochib beriladi.

2. Shoirlikdan maqsad

Tatabbu' kardan-i Foniy dar ash'or,
Na az da'voyu ne az khudnamoi ast.
Chu arbobi sukhan sohibdilonand,
Muradash az dar-i dilho gadost.[1;29]
Badiiy tarjima:

Tatabbu'din Foniyda yo'q hech da'vo,
O'zni ko'rsatmoq emas niyat aslo.
So'z ahli — qalb egalaridir go'yo,
Gadodek unga yo'l topmoq muddao.

Bilamizki, Alisher Navoiy "Devoni Foniy"da ko'plab mashhur forsiy ijodkorlar asarlariga tatabbu' keltiradi. Bu qit'ada Navoiy she'r yozishni o'zini ko'rsatish yoki da'vo qilish vositasi emas, balki ichki ehtiyoj va ma'naviy jarayon sifatida tushuntiradi. Shoir bu yerda ijodkorning asosiy maqsadi tashqi e'tirof emas, balki inson qalbiga ta'sir qilish ekanini ta'kidlaydi. "Sohibdil" tushunchasi orqali haqiqiy she'rni anglay oladigan insonlar nazarda tutiladi, ya'ni she'r hammaga emas, qalbi sezgir kishilarga yetib boradi. "Gado" obrazi esa shoirning kamtarligini ifodalaydi: u o'zini yuqoriga qo'ymaydi, aksincha, qalblar eshigida turib, samimiy tarzda qabul qilinishni kutadi. Shu orqali Navoiy shoirlikni kamtarlik, samimiyat va ichki poklik bilan bog'liq holda talqin qiladi.

3. Ijod qadri, faxr tuyg'usi:

Ma'nii shirinu ranginam ba turki be-had ast,
Forsiy ham la'l-u durhoi samin, gar bingarī.
Goyo dar rost bozorgi sukhan bikshodaam,
Yak taraf dukoni qandolati-yu yak su zargari.
Z-in dukonho har kire kolo kujo donad harid?
Z-on ki boshad ag'niyo, in naqdhoro mushtari[1;28]
Badiiy tarjima:
Garchi turkda shirin she'rim bisyordir,
Qara, forsiy she'rlarim ham javohir.
Men go'yoki so'z bozorini ochganman,

Bir qand-u, bir yon zargar bozori.
Unga hamma bo'la olmas mushtari,
Yetsa olar ilm mulkin gavhari.

Bu qit'ada Navoiy o'z ijodini ikki til — turkiy va forsiyda yaratilgandanidan faxr hissini tuyishini namoyon qiladi. Shoir turkiy tildagi ma'nolarini "shirin va rangin", forsiydagi ifodalarini esa "la'l va dur"ga qiyoslaydi. Bu orqali u har ikki tilni ham bir xil darajada qimmatli va badiiy jihatdan boy ekanligini tasvirlaydi.

Qit'aning markaziy g'oyasi "so'z bozori" obrazi orqali ochiladi. Shoir o'z ijodiy makonini bozorga o'xshatadi va unda turli "do'konlar" mavjudligini aytadi: bir tomonda qandolat, ya'ni shirin va yoqimli ma'nolar, boshqa tomonda esa zargarlik, ya'ni qimmatli va nafis ifodalar. Turkiy tilni qandolatga o'xshatish bejiz emas. Chunki turkiy xalqlarga o'z tilida she'r eshitish qand kabi yoqimli. Forsiy til esa buyuk klassik an'analarga egaligi uchun qimmatli til. Bu obrazlar orqali Navoiy ijodni xilma-xil va har xil didga mos tizim sifatida tasvirlaydi. Navoiy turli did egalariga munosib she'rlar yoza olganidan faxr tuyg'usini sezadi.

So'nggi misralarda shoir har kim bu "so'z bozori"dan o'z didi va ehtiyojiga qarab tanlov qilishini ta'kidlaydi. Ya'ni badiiy asarni tushunish va qadrlash hamma uchun bir xil emas, u o'quvchining bilim darajasi va estetik didiga bog'liq. Kim chuqur bilim va boy tafakkurga ega bo'lsa, u shoir "bozori"dan munosib nasiba ola biladi. Aql va idrok gavharlari yetarli bo'lmaganlar esa bu ma'naviy boylikdan bebahra qoladi.

Muhokama. Tahlil qilingan qit'alar shuni ko'rsatadiki, Navoiy forsiy she'riyatida shoirlik masalasini faqat ijodiy faoliyat doirasida emas, balki kengroq ijtimoiy

munosabatlar tizimida talqin qiladi. Shoir o'z asarini "farzand" deb atash orqali ijodga shaxsiy yaqinlikni bildirsa-da, uni mutlaq mulk sifatida ko'rmaydi. Boshqa shoirlar ijodiga hurmat bilan qarash, ularning ham ijodini qadrlash g'oyasini ilgari suradi. Adabiy muhitda xolislik va o'zaro tan olish bo'lsagina haqiqiy ijodkor yetishib chiqadi.

Bir o'rinda Navoiy she'rni "farzand"ga tenglashtirsa, boshqa o'rinda "qandolat–zargar" kabi metaforalar orqali ifodalaydi. Bu holat shoir ijodni turli did va ehtiyojlarga mos keladigan ko'p qirrali tizim sifatida tasvirlashini ko'rsatadi. Navoiy shoirlikning yagona qolipga sig'masligini, u turli darajalar va estetik imkoniyatlarni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Yana bir qit'ada esa haqiqiy shoir har qanday ta'madan yiroq bo'lishi kerakligi uqtiriladi. Shoirlik bu yerda o'zini ko'rsatish vositasi emas, balki inson qalbiga ta'sir qilishga qaratilgan ma'naviy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Qit'alarda kamtarlik, da'vodan yiroqlik va qalbga yo'l topish g'oyasi bilan bir qatorda o'z ijodi kuchiga ishongan shoirning she'riy merosidan faxrlanish tuyg'usi ham aks etadi. Bu, albatta, bejiz emas. Chunki inson o'z ijodiga mehr va muhabbat bilan yondashsagina, ijodining ta'sir kuchiga ishonsagina faxr tuyg'usini his eta oladi. Navoiy ana shunday ijodkordir

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiyning forsiy qit'alarida shoirlik haqidagi qarashlar izchil va yaxlit tizim sifatida shakllangan. Bu qarashlarda shoirlik faqat ijodiy mahorat bilan emas, balki shoirning ichki dunyosi, kamtarligi va adabiy mezonlarga munosabati bilan ham belgilanadi.

Navoiy ijodida shoir o'z asarini alohida yutuq sifatida ajratib ko'rsatmaydi, balki uni umumiy adabiy jarayonning bir bo'lagi sifatida anglaydi. Shu bois boshqa

ijodkorlar asariga munosabat, o'z ijodiga xolis qarash va so'zning ta'sir kuchini to'g'ri anglash masalalari muhim o'rin egallaydi.

Umuman olganda, Navoiy forsiy qit'alarida shoirlik masalasi badiiy tafakkur va ma'naviy mas'uliyat uyg'unligida namoyon bo'ladi hamda ijodkor shaxsning adabiy va axloqiy qarashlarini belgilab beruvchi asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR:

1. Alisherv Navoiy. MAT. XX tomlik. 19-tom. Toshkent: "FAN", 2002.-B.
2. Navoiy, A. Devoni Foniyn (Forsiy qit'alar). Toshkent: Fan nashriyoti, 1996.
3. Erkinov, S. Alisher Navoiy poetikasi. Toshkent: Fan, 2004.
4. Yusupova, D. Sharq mumtoz adabiyotida estetik tafakkur. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2018.
5. Karimov, N. Navoiy va adabiy an'ana. Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
6. Rahmonov, B. Klassik poetika asoslari. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015.
7. Bertels, E. E. Navoi and Jami. Moscow: Nauka, 1965.
8. Browne, E. G. A Literary History of Persia. Cambridge: Cambridge University Press, 1956.
9. Subtelny, M. E. Timurid Literature and Culture. Leiden: Brill, 2007.
10. Mirzaev, T. Navoiy ijodiy merosi. Toshkent: Fan, 2012.
11. Hamidov, H. Sharq adabiyotida shoirlik konsepsiyasi. Toshkent: Akademnashr, 2020.
12. Sultonov, U. Adabiy mezonlar va poetik tafakkur. Toshkent: Universitet, 2017.
13. Jurakulov, U. Mumtoz poetika va ramziylik. Toshkent: Fan, 2013.
14. Nasriddinov, A. Forsiy adabiy an'ana va Navoiy. Toshkent: Tafakkur, 2019.

15. Schimmel, A. As Through a Veil: Mystical Poetry in Islam. New York: Columbia University Press, 1982.
16. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
17. https://www.mamun.uz/bulletin
18. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
19. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING BOBLARI BO'YICHA TAVSIFI. *Shokh Articles Library*, *1*(2).
20. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
21. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION.* (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
22. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.